



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

**SOLIQ MA’MURCHILIGIGA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI**

Sayyora Valiyeva¹

¹*“International School of Finance Technology and Science” instituti dotsenti PhD.,*

KALIT SOʻZLAR	ANNOTATSIYA
Soliq maʼmurchiligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron davlat xizmatlari, elektron hisobot, avtomatlashtirilgan axborot tizimi, raqamli iqtisodiyot, budget siyosati, onlayn nazorat kassa mashinalari, elektron hisobvaraq-fakturalar.	Mazkur maqolada bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya tizimi, jumladan, soliq maʼmurchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida yaxshilash, xizmatlar darajasini yuqoriga chiqarish masalalari koʻrib oʻtilgan. Shuningdek, iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari oʻrganilgan va ilmiy qarashlari ochib berilgan. Mavzu doirasida tavsiyalar ishlab chiqilgan va xulosalar shakllantirilgan.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Налоговое администрирование, информационно-коммуникационные технологии, электронные госуслуги, электронная отчетность, автоматизированная информационная система, цифровая экономика, бюджетная политика, онлайн-кассы, электронные счета-фактуры.	В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования финансовой системы, в том числе процесса налогового администрирования, в результате внедрения современных информационно-коммуникационных и цифровых технологий в условиях современной цифровой экономики, а также повышения уровня услуг. Также были изучены исследования экономистов и раскрыты их научные взгляды. В рамках темы были разработаны рекомендации и сформулированы выводы.
KEY WORDS	ABSTRACT
Tax administration, information and communication technologies, electronic state services, electronic reporting, automated information system, digital economy, fiscal policy, online control cash registers, electronic invoices.	This article discusses the issues of improving the financial system, including the tax administration process, as a result of the introduction of modern information and communication and digital technologies in the conditions of today’s digital economy, as well as raising the level of services. Also, the researches of economists were studied and their scientific views were revealed. Within the topic, recommendations were developed and conclusions were formed.



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Kirish. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish har qanday davlat taraqqiyotining zaruriy shartidir. Demokratik islohotlar va bozor iqtisodiyotini rivojlantirish yo‘lidan borayotgan O‘zbekiston ham bundan mustasno emas. So‘ngi yigirma yilda soliq ma‘murchiligi jarayoniga AKTni izchil joriy etish davlat soliq qo‘mitasining soliq to‘lovchilar va soliq solinadigan obyektlar to‘g‘risida to‘plangan ishonchli ma‘lumotlarni tizimlashtirish, ushbu ma‘lumotlarning qayta ishlanishi va ularning ishonchli saqlanishini ta‘minlashga qaratilgan faoliyati izchil olib borayotgan eng muhim tadbirlaridan biridir.

Jahon amaliyotidan ko‘rishimiz mumkinki, soliq ma‘murchiligini raqamlashtirish asosida qonunchilikka rioya etish va ma‘muriy xarajatlarni kamaytirish, ko‘proq daromadlarni samaraliroq yig‘ish, shaffoflik va soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash hamda katta ma‘lumotlar oqimini moslashtirishni ta‘minlaydi. Bugungi kunda soliq ma‘murchiligi doirasida soliqlar tuzilmasini optimallashtirish, ularni undirish, soliq hisobi va hisobotini yuritish mexanizmini takomillashtirish, soliqlarning to‘g‘ri hisoblanishi, o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishi, soliq to‘lovchilarning soliq qonunchiligida belgilangan huquq va majburiyatlariga rioya etilishini nazorat qilish, soliq tushumlarini turli darajadagi budjetlar o‘rtasida taqsimlash, natijalarni yig‘ish va tahlil qilish, soliqqa tortish jarayonining barcha ishtirokchilarining soliq munosabatlarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha keng chora-tadbirlar amalga oshirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufyona aylanmani qisqartirish va O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish maqsadida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10 iyuldagi “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4389-son qarorida Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish uchun soliq ma‘murchiligi jarayonini avtomatlashtirish kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalar ijtimoiy sohani rag‘batlantirish hamda soliq ma‘murchiligini takomillashtirish, byudjet daromadlari barqarorligini ta‘minlash, uning moliyaviy xavfsizligini ta‘minlashdagi o‘rnini kuchaytirish hamda soliq intizomini mustahkamlashning uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini ko‘rsatib beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi PF-5116-son “Soliq ma‘muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi, 2018-yil 26-iyundagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3802-sonli, 2019-yil 30-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4555-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ham amalga oshirilishi kerak bo‘lgan asosiy vazifalar belgilab berilgan.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Soliq tizimini avtomatlashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan R.Abzalimova va A.Sharafutdinovlarning fikriga ko‘ra, “soliqqa tortishning avtomatlashtirilgan axborot tizimi zamonaviy axborot texnologiyalari



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

va ma'lumotlarni qayta ishlashning yangi imkoniyatlaridan foydalangan holda soliq organlari faoliyatini tashkiliy boshqarish shakli bo'lib, undan foydalanish jarayonida qabul qilingan qarorlarning o'z vaqtidaligi va asosligi oshadi, shoshilinch vazifalar ro'yxatini kengaytirish, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashning murakkabligini kamaytirish, axborot oqimlarini tartibga solish, iqtisodiy va matematik usullarni qo'llash orqali soliq ma'muriyatchiligi jarayonlarini optimallashtirish mumkin bo'ladi" [1].

Rus olimlari S.P.Kosarin, Y.A.Lebedeva, I.V.Milkinalar esa, soliq tizimida axborot texnologiyalarni qo'llash borasidagi tadqiqotlarida soliq tizimini avtomatlashtirishning asosiy maqsadi va uning samaradorligini ko'rsatib o'tgan. Unga ko'ra "soliq tizimini avtomatlashtirish va axborotlashtirish soliq qonunchiligidagi barcha o'zgarishlar to'g'risida soliq organlari va soliq to'lovchilarni o'z vaqtida axborot bilan ta'minlashga, soliq to'lovchilarning buxgalteriya hisobi bo'yicha ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishga, qabul qilingan qarorlarning o'z vaqtida va tezkorligi hisobiga soliq tizimi faoliyati samaradorligini oshirishga, soliq organlari xodimlarining samaradorligi va mehnat unumdorligini oshirishga, soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazorat samaradorligini oshirishga, qog'ozbozlikni qisqartirishga hamda soliq tushumlari va barcha darajadagi byudjetlarga boshqa to'lovlar tushum dinamikasini tahlil qilish va prognozlash uchun ma'lumotlar yig'ishga xizmat qiladi va uning samaradorligini oshirishni ta'minlaydi" [2]. Aynan ushbu mualliflar soliq tizimini avtomatlashtirishda "soliq avtomati" tushunchasini qo'llaydi va uni "kiruvchi hujjatlarni o'z vaqtida qayta ishlash va soliq ma'muriyatchiligining rasmiylashtirilgan tartiblarini avtomatlashtirish imkonini beruvchi texnologiya deb ta'riflaydi hamda uning

xususiyatlari sifatida texnologiya hisob-kitoblar, to'lovlarni o'tkazish va qarzlarni undirish jarayonlarini avtomatlashtirish"ini keltiradi.

I.Meleshenko o'z tadqiqotlarida soliq tizimida soliq qonunchiligining amal qilishida elektron savdo jarayonlarini tadqiq qilib, soliq tizimida elektron savdo munosabatlarining huquqiy jihatlari bilan birga uni amalga oshirishda axborotlashtirish orqali xorijiy kompaniyalarni soliq to'lovchi sifatida ro'yxatga olish, ularni ikkiyoqlama soliqqa tortmaslikni bartaraf etishda axborot texnologiyalardan samarali foydalanishning yo'llarini ishlab chiqqan [3].

Albatta soliqqa tortishda axborotlashtirishning roli beqiyos. Bunda ayniqsa soliq hisobini to'g'ri tashkil qilish va uning bir maromda ishlashida axborotlarning xavfsizligini ta'minlash o'ta muhim sanaladi. Soliq tizimida soliq to'lovchilar va soliq xizmatlari organlarining soliq siri sifatidagi axborotlarni saqlash ham huquqiy ham iqtisodiy-sotsial jihatdan o'ta muhim sanaladi. Bu yerda nafaqat iqtisodiy, shuningdek, huquqiy munosabatlar yuzaga keladi. Demak, soliq tizimini axborotlashtirishda ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash o'ta muhim sanaladi. Axborotlarning maxfiylikni saqlash esa soliq ma'murchiligining asosiy bosqichlaridan hisoblanadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan elektron xizmatlar, jumladan, mobil ilovalar joriy etilgan. Soliq to'lovchilar bilan imkon qadar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali muloqot qilishni yo'lga qo'yish maqsadida davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'rsatilayotgan elektron davlat xizmatlarning soni 45 taga yetkazildi. Mazkur xizmatlar Davlat soliq qo'mitasining "Elektron



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

davlat xizmatlari – my.soliq.uz” portali orqali ko‘rsatilmog‘da. Shu bilan birga, portaldagi soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali soliq qonunchilikda ko‘zda tutilgan 12 turdagi elektron hujjatlar hamda 27 turdagi hisobotlar yuborilmoqda.

2021 yil boshidan bir qator elektron davlat xizmati yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, “Ko‘chmas mulk ijara shartnomalarini elektron tarzda hisobga qo‘yish va to‘lov xabarnomasini shaxsiy kabinetga yuborish” elektron xizmatini yo‘lga qo‘yish natijasida 2022-yil davomida 903,3 mingta shartnomalar elektron tarzda hisobga qo‘yilgan. Bu qatorda “Shaxsiy kabinet orqali elektron hisobvara-q-fakturalarni rasmiylashtirish” elektron xizmati joriy etilgan va 2022-yil boshidan o‘tgan davr davomida 731,5 mingta hisobvara-q-fakturalar elektron ko‘rinishda rasmiylashtirilgan. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) da 16 ta elektron davlat xizmatlari yo‘lga qo‘yildi.

my.soliq.uz portaliga jami 1,9 mln.ta foydalanuvchilar tomonidan 105,6 mln. marotaba murojaatlar bo‘lgan. Ya’ni, murojaatlar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 22,3 foizga oshdi. Shuningdek, eng ko‘p foydalanilayotgan xizmatlarga bo‘layotgan murojaatlar jami murojaatlarga nisbatan quyidagicha:

- Elektron soliq hisobotlarni yuborish 39,7 mln marotaba (40%);
- Shaxsiy kartochkadan ko‘chirmalar olish va solishtirma dalolatnomani taqdim etish 21,1 mln marotaba marotaba (22,2%);
- Elektron to‘lovlarni qabul qilish 24,5 mln marotaba (19,8%);
- Soliq to‘lovchilarni hisobga qo‘yish 20,1 mln marotaba (17,3%).

2022 yil davomida shaxsiy kabinetlar orqali tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan 1,9 trln.so‘m soliqlar elektron shaklda to‘landi. Mazkur to‘lovlar

o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 157,9 mlrd.so‘mga oshdi.

Huddi shunday, PAYME, CLICK, U-PAY hamda MUNIS elektron to‘lov tizimlari orqali jismoniy shaxslar tomonidan 9,7 trln so‘mdan ortiq soliqlar elektron shaklda to‘landi. Mazkur to‘lovlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 trln so‘mga oshgan. Soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlarining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlari amalga oshirilishi bilan bog‘liq o‘zaro munosabatlarni elektron tarzda amalga oshirishni ta‘minlaydigan axborot resursi hisoblanishi belgilangan.

Qonunchilikda ko‘zda tutilgandek, soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlarining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlari amalga oshirilishi bilan bog‘liq o‘zaro munosabatlarni elektron tarzda amalga oshirishga o‘tish soliq to‘lovchining xohishiga ko‘ra, uning arizasi asosida amalga oshiriladi.

“Soliq inspektorining avtomatlashtirilgan ish joyi (armni-4)” dasturiy mahsuloti 2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, dasturiy mahsulot yordamida 586,8 ming yuridik shaxs uchun buxgalteriya hisobi va tahlil olib borilmoqda, ularning soni o‘tgan yilning tegishli sanasiga nisbatan 25,6 mingga yoki 4,9 foizga oshdi. 2020-yil uchun byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga daromadlar o‘sishi bilan 4,9 trln so‘m (113,1%) 2019-yilga nisbatan yig‘ish darajasi 97,3% ga yetdi yoki tegishli ravishda 0,5% ga oshdi.

“Jismoniy shaxslar hisobi va ularning soliq majburiyatlari” dasturiy mahsuloti orqali mol-mulk solig‘i va yer solig‘ini hisoblash uchun har yili 2-3 oy kerak bo‘lardi. Balans summalarini hisoblash va hisobotlarni tuzish uchun 1–1,5 oy vaqt ketardi. Endi bular uchun sarflanadigan vaqt faqat 3-4 ish



soatni tashkil etadi xolos. Dasturiy ta’minot paketini joriy etishning umumiy iqtisodiy samarasi yiliga 675,5 mln so‘mni tashkil etdi. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra mulk solig‘i va yer solig‘i to‘lovchilari – ro‘yxatdan o‘tgan jismoniy shaxslar soni 5469,1 mingtani tashkil etdi. Shu bilan birga, 2020-yil uchun mol-mulk solig‘i tushumlari 336,6 mlrd so‘m, yer solig‘i – 343,2 mlrd so‘m, ya’ni

2019-yilga nisbatan tegishli tarzda 57,8 mlrd so‘m bo‘lib, (120,7%) va 76,1 mlrd so‘m (128,5%) ko‘p demakdir.

Davlat soliq qo‘mitasi hamda vazirlik va idoralar o‘rtasida o‘zaro ma’lumot almashinuvi hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda 2018–2022-yillar tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval. Davlat soliq qo‘mitasi hamda vazirlik va idoralar o‘rtasida o‘zaro ma’lumot almashinuvi taxlili.

To‘lov topshiriqnomalar	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Vazirlik va idoralar soni	32	36	41	49	53
Ma’lumot soni	201245128	244429515	333755792	496526824	411739655

Mazkur 1-jadvalda ko‘rinadiki, vazirlik va idoralar bilan axborot almashinuvini ko‘radigan bo‘lsak, 2018-yilda ularning soni 32 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda ularning soni 36 tani, 2020-yilda 41 tani, 2021-yilda 49 tani, 2022-yilda 53 tani tashkil etgan. Bundan tashqari, ular tomonidan ma’lumot almashinish soni qariyb 2018-yilda 201245128 tani, 2019-yilda 244429515 tani, 2020-yilda 333755792 tani, 2021-yilda 496526824 tani, 2022-yilda esa 411739655 tani tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.

“Yuridik va jismoniy shaxslarning qarzdorliklarini hisobga olish” avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanuvchilar soni ham tahlil qilindi (2-jadval). Mazkur 2-jadvalda ko‘rinib

turibdiki, ilgari soliq qarzi bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni hisobga olish va majburiy qarzni undirish uchun hujjatlarni shakllantirish bo‘yicha ishlar (xabarnoma, da’vo arizasi va boshqalar) 1,5 ming soliq inspektori tomonidan qo‘lda amalga oshirilardi. Hozirgi kunda inkasso buyurtmalari bilan shug‘ullanuvchi xodimlar soni 200 nafar inspektorga qisqartirilgan. Axborot tizimining joriy etilishi ish vaqtining narxini pasaytirdi: ilgari inkasso topshiriqnomasini berish uchun 3 ish kuni kerak edi, endi esa bu jarayon atigi 10 daqiqa davom yetadi, qog‘oz sarfi yiliga o‘rtacha 41,2 tonnaga kamaydi.

2-jadval. “Yuridik va jismoniy shaxslarning qarzdorliklarini hisoblash” avtomatlashtirilgan axborot tizimi.

Yillar kesimida	Tijorat banklariga yuborilgan inkassolar soni	Talab etiladigan pachka soni (1 pachkada 500 dona qog‘oz)	O‘rtacha 1 pachka qog‘oz qiymati	Tejalgan mablag‘
2018	13 029 990	26 060	35 000	912099300
2019	20 704 358	41 409	38 000	1573531208
2020	12 221 404	24 443	45 000	1099926360
2021	9 225 166	18 450	50 000	922516600
2022	4 952 278	9 905	70 000	693318920



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

Jami	60133196	120266	47600	5201392388
-------------	----------	--------	-------	------------

“Soliq to‘lovchilarni ro‘yxatga olish” xizmatidan foydalanish imkoniyati cheklangan bo‘lib, shahar va tumanlar hokimliklarida, shuningdek, viloyat Adliya organlarida ro‘yxatdan o‘tish organlariga mo‘ljallangan. “Fuqarolarning elektron murojaatlari” ularning elektron pochta manzillariga yoki murojaat etuvchining iltimosiga binoan yozma ravishda yuboriladi. Murojaatni elektron shaklda yuborish, vaqtni tejashdan tashqari qator afzalliklarga ega. U yakshanba va bayramlardan qat‘i nazar, kunning istalgan vaqtida yuborilishi mumkin, unda moddiy xarajatlar kamayadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy o‘zgarishlarga zaruriy moslashishni ta‘minlaydigan va axborot muhitida munosib o‘rinni kafolatlaydigan tafakkur tarziga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Raqamli texnologiyalar samarasi o‘laroq bugungi kunda soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o‘rtasidagi asosiy muloqot virtual platformaga ko‘chib ulgurd. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida mamlakat iqtisodiyotining global raqobatbardoshlik salohiyatining o‘shishida, zamonaviy AKTlar beqiyos ahamiyatga ega ekanligi barchamizga ma‘lum. Hozirgi davrda Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq sohasida, ko‘plab hisob-kitoblar va prognozlar ilg‘or AKT asosida amalga oshiriladi, qo‘mita faoliyat yurituvchi axborot tizimlari (AT) o‘rtasida o‘zaro hamkorlik tajribasi yo‘lga qo‘yilgan. Biroq, aholini ro‘yxatga olishda ilg‘or AKTdan foydalanish orqali foydalanuvchilarga hisobot ma‘lumotlarini taqdim etishda yangi uslubiy yechimlar, texnologiyalar, dasturiy mahsulotlar va yig‘ish

hamda qayta ishlash bo‘yicha innovatsion mexanizmlar yetarli daraja takomillashmagan.

Muhokama va xulosa. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqilgan:

1. Soliq ma‘murchiligiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishda virtual kassalar hamda elektron hisobvaraƒ-faktura ma‘lumotlarini qayta ishlash va ular asosida soliq ma‘muriyatchiligini amalga oshirish jarayonini avtomatlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz

2. “Onlayn nazorat kassa mashinalari”, “Elektron hisobvaraƒ-fakturalar” va boshqa markazlashgan tizimlar orqali shakllangan ma‘lumotlarni qayta ishlash natijasida bozor konyunkturasini o‘rganish, qo‘shilgan qiymat solig‘i zanjirini nazoratga olish, tovar va xizmatlarning iqtisodiyotda harakatlanishini monitoring qilish, soliq to‘lovchilarga kontaktsiz elektron xizmatlarni ko‘rsatishga bosqichma-bosqich o‘tish, soliq to‘lovchi shaxsiy kabinetining foydalanish doirasini kengaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

3. Yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, jumladan, tartibga solish va ma‘muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish kerak, chunki mamlakatimiz iqtisodiyotda yashirin aylanma darajasini qisqartirish va qonuniy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini takomillashtirish, zamonaviy axborot yechimlarini



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

joriy etish, iqtisodiyotda xufyona aylanmani qisqartirish, shuningdek, ushbu sohada ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish kerak.

5. Markaziy ma'lumotlar bazasi soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot-resurs bazasi negizida tashkil etish, ma'lumotlarni qayta ishlash markazini modernizatsiya qilish va soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ro'yxatdan

o'tgan nodavlat notijorat tashkilotlari, advokatlik byurolari va firmalari, ro'yxatdan o'tgan banklar, kredit byurolari va xorijiy banklarning vakolatxonalari, akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik vakolatxonalar, xorijiy davlatlarning konsullik muassasalari, xorijiy tijorat tashkilotlarining akkreditatsiyadan o'tgan vakolatxonalari to'g'risidagi ma'lumotlar markaziy ma'lumotlar bazasiga o'tkazish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абхалимова Р.С., Шарафутдинов А.Г. Информационные технологии XXI века // Экономика и социум, 2014. – № 2(11). – С. 234–236.

2. Косарин С.П., Лебедева Ю.А., Милькина И.В. Модернизация информационной системы налоговых органов Российской Федерации // E-Management, 2019. – № 1. – С. 42–51.

3. Мелешенко И.П. Актуальные правовые проблемы международного налогообложения электронной коммерции. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Москва, 2008.

4. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. – T.: Adolat, 2020. <https://lex.uz>.

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.